


Daniya



BOSHPANA VA MIGRATSIYANI BOSHQARISH TO'G'RISIDAGI REGLAMENT HAQIDA NIMALARNI BILISHINGIZ KERAK

A turi

XALQARO HIMOYA SO'RAB ARIZA BERGAN SHAXSLAR



UZBEK

MUNDARIJA

Sizga bu broshyura nima uchun berilmoqda?	3
Xalqaro himoya nima va undan kimlar foydalanishi mumkin?	3
Boshpana va migratsiyani boshqarish to'g'risidagi reglament nima?	4
Arizangizni qaysi YI+ mamlakati ko'rib chiqishi to'g'risidagi qaror kutilayotgan davrdagi huquqlaringiz	5
Arizangizni qaysi YI+ mamlakati ko'rib chiqishi haqidagi qarorni kutayotganda qayerda joylashishingiz kerak?	7
Ushbu tartibda sizdan nimalar talab etiladi?	7
Qaysi hujjatlarni ko'rsatishingiz kerak?	8
Nima uchun barmoq izlaringiz va fotosuratingizni topshirishingiz shart?	9
Majburiyatlaringizni bajarmasangiz, buning oqibatlari qanday bo'ladi?	10
Ushlab turish nimani anglatadi?	11
Vakolatli organlar arizangizni qaysi YI+ mamlakati ko'rib chiqishini qanday hal qiladi?	12
Arizangizni qaysi YI+ mamlakati ko'rib chiqishini aniqlashga yordam berish uchun siz bilan suhbat o'tkazilishi mumkin.	15
Suhbat har doim ham o'tkaziladimi?	17
Boshqa bir YI+ mamlakatida oila a'zolaringiz borligini isbotlash uchun qanday dalillarni taqdim etishingiz mumkin?	18
Jarayon qancha davom etadi?	19
Agar siz boshqa bir YI+ mamlakatida xalqaro himoya so'rab ariza bergan bo'lsangiz, nima bo'ladi?	20
Qaror qabul qilingach nima bo'ladi?	21
Shikoyat qilish tartibi haqida nimalarni bilishingiz kerak (to'xtatib turuvchi ta'sir va mohiyatan ko'rib chiqish bo'yicha shikoyat birgalikda qo'llanilganda nimalarni bilishingiz kerak)	22
Qanday shaxsiy ma'lumotlar yig'iladi?	24
Shaxsiy ma'lumotlaringizga oid qanday huquqlarga egasiz?	24

➤ **SIZGA BU BROSHYURA NIMA UCHUN BERILMOQDA?**

Siz 31 ta YI+ mamlakatidan birida xalqaro himoya, ya'ni boshpana so'rab ariza bergansiz. Bu siz endi xalqaro himoya so'rab ariza bergan shaxs ekaningizni anglatadi. Arizangizni ko'rib chiqish uchun boshqa bir YI+ mamlakati mas'ul bo'lishi mumkin. Endi siz ushbu qarorni kutyapsiz.

YI+ mamlakatlari qanday hamkorlik qilishini tushunish muhimdir, chunki bu arizangizni qaysi mamlakat ko'rib chiqishiga ta'sir qilishi mumkin.

Barcha kerakli ma'lumotlarni ushbu broshyuradan topasiz.

➤ **XALQARO HIMOYA NIMA VA UNI KIMLAR OLISHI MUMKIN?**



Agar ta'qib qilinishdan qo'rqsangiz yoki jiddiy zarar yetishi xavfiga duch kelsangiz va shu sababli mamlakatingizga qayta olmasangiz, sizga xalqaro himoya kerak bo'lishi mumkin. Bu, masalan, sizning hayotingiz yoki erkinligingiz xavf ostida bo'lishini va mamlakatingizdagi vakolatli organlar siz duch kelayotgan xavfdan sizni himoya qilmasligini anglatadi.

Xalqaro himoya to'g'risidagi batafsil ma'lumot alohida broshyurada taqdim etiladi.

Siz hozir YI+ mamlakatlardan biri bo'lgan Daniya dasiz.

YI+ mamlakatlari quyidagilar:



Yevropa Ittifoqining (YI) 27 ta a'zo davlati: Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya Respublikasi, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya, Xorvatiya, Shvetsiya va Chexiya va



yana 4 ta davlat: Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shveysariya.


➤ BOSHANA VA MIGRATSIYANI BOSHQARISH TO'G'RIDAGI REGLAMENT NIMA?



YI+ mamlakatlari Boshpana va migratsiyani boshqarish to'g'risidagi reglament (AMMR) deb ataladigan umumiy huquqiy hujjat bo'yicha kelishib oldilar. Ushbu qonun xalqaro himoya so'rab berilgan arizani ko'rib chiqish uchun qaysi mamlakat mas'ul ekanini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu qonun biror mamlakatga bir vaqtning o'zida juda ko'p ariza kelib tushgan taqdirda, YI+ mamlakatlariga bir-biriga yordam berish imkonini yaratadi.

Arizangizni YI+ mamlakatlaridan biri ko'rib chiqishi kafolatlanadi, lekin qaysi mamlakat mas'ul bo'lishini siz tanlay olmaysiz. Arizangizni ko'rib chiqadigan mamlakat Boshpana va migratsiyani boshqarish to'g'risidagi reglament (AMMR) qoidalariga muvofiq belgilanadi.

Agar ushbu broshyurada siz tushunmagan biror jihat bo'lsa, immigratsiya xodimidan so'rashingiz mumkin.



Ayni paytda YI+ mamlakatlari arizangizni ko'rib chiqish uchun ulardan qaysi biri mas'ul ekanini aniqlamoqda.

Agar arizangizni ko'rib chiqish uchun boshqa bir YI+ mamlakati mas'ul deb topilsa, siz o'sha mamlakatga ko'chirilasiz.

➤ ARIZANGIZNI QAYSI YI+ MAMLAKATI KO'RIB CHIQISHI TO'G'RISIDAGI QAROR KUTILAYOTGAN DAVRDAGI HUQUQLARINGIZ



Agar siz xalqaro himoya so'rab birinchi marta ariza berayotgan bo'lsangiz, bepul **yuridik maslahat** olish huquqiga egasiz. Buni vakolatli organlardan istalgan vaqtda so'rashingiz mumkin.


Yuridik maslahatchi sizga huquqlaringiz haqida ma'lumot beradi va tartib davomida sizni qo'llab-quvvatlaydi. Agar siz yuridik maslahatchi yollash uchun haq to'lagan bo'lsangiz, vakolatli organlar sizga bepul yuridik maslahat bermasligi mumkin. Yuridik maslahat guruh tarzida berilishi mumkin, ammo maslahatchi shaxsiy ma'lumotlaringizni boshqalarga oshkor qilmaydi.

Siz yuridik maslahatchi so'rash uchun vakolatli organlar bilan Siz rasmiylarga murojaat qilib, yuridik maslahatchi so'rashingiz mumkin. Buni rasmiylardan Daniyada boshpana izlovchilar va qochqinlar huquqlari uchun ishlaydigan xususiy gumanitar tashkilot bo'lgan DRC Daniya Qochqinlar Kengashining aloqa ma'lumotlarini so'rash orqali amalga oshirasiz.

Shuningdek, siz DRC Daniya Qochqinlar Kengashi bilan: 3373 5020 telefon raqami yoki advice@drc.ngo elektron pochta manzili orqali o'zingiz bog'lanishingiz mumkin. DRC Daniya Qochqinlar Kengashi ham tez-tez Center Sandholmda faoliyat yuritadi. DRC (Dansk Flygtningehjælp) Daniya Qochqinlar Kengashi boshpana olish jarayonida boshpana izlovchilarga bepul va xolis huquqiy maslahatlar beradi. Agar jarayon va huquqlaringiz bo'yicha biron bir savolingiz bo'lsa, DRC Daniya Qochqinlar Kengashiga murojaat qilishingiz mumkin.



Agar bu sizga o'z vaziyatingiz haqida gapirishni osonlashtirsa, erkak yoki ayol tarjimon hamda ishingiz bo'yicha mas'ul xodimni so'rashingiz mumkin. Vakolatli organlar imkon qadar sizning xohishingizni inobatga oladi.



Shuningdek, arizangizni qaysi YI+ mamlakati ko'rib chiqishini aniqlash tartibining borishi haqida ma'lumot so'rash huquqiga ham egasiz. Agar tartibning borishi haqida ma'lumot olishni istasangiz, vakolatli organlar bilan Buni Daniya Immigratsiya Xizmati bilan www.nyidanmark.dk/da/Kontakt-os/ manzili orqali bog'lanib amalga oshirishingiz mumkin.



Siz boshpana berish tartibining istalgan bosqichida BMTning Qochqinlar bo'yicha agentligi (QBOKB) bilan bog'lanish va u bilan muloqot qilish huquqiga egasiz.

QBOKB boshpana izlovchi shaxslar va qochqinlarning manfaatlarini hamda huquqlarini himoya qiladi.

QBOKBning aloqa ma'lumotlari va boshpana berish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagi veb-sahifasida topishingiz mumkin:

<https://help.unhcr.org/>.

Sizga ko'rsatiladigan yordam va xizmatlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni alohida broshyurada topishingiz mumkin.

➤ ARIZANGIZNI QAYSI YI+ MAMLAKATI KO'RIB CHIQISHI HAQIDAGI QARORNI KUTAYOTGANDA QAYERDA JOYLASHISHINGIZ KERAK?



- Siz hozircha ushbu mamlakatda qolishingiz shart.
- Siz boshqa YI+ mamlakatlaridan biriga faqat vakolatli organlar tomonidan bunga ruxsat berilgan taqdirdagina borishingiz mumkin.
- Agar vakolatli organlar arizangizni boshqa bir YI+ mamlakati ko'rib chiqadi deb qaror qilsa, ular sizning o'sha mamlakatga borishingizni tashkil etadi.

➤ USHBU TARTIBDA SIZDAN NIMALAR TALAB ETILADI?

Siz quyidagilarni bajarishingiz shart:

- ✔ Arizangiz ro'yxatdan o'tkazilayotgan davrda ushbu mamlakatda qolishingiz kerak.
- ✔ Agar sizga avval viza yoki yashash uchun ruxsatnoma berilgan bo'lsa, o'sha mamlakatga yetib borganingizdan so'ng boshpana so'rab arizani aynan shu mamlakatda bering.
- ✔ Shaxsingizni tasdiqlash uchun sizda mavjud bo'lgan barcha shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishingiz kerak.
Agar avval shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat olgan bo'lsangiz-u, lekin hozir u yoningizda bo'lmasa, baribir vakolatli organlarga sizga bunday hujjat ilgari o'z mamlakingizda berilganini aytishingiz kerak.
- ✔ Boshqa bir YI+ mamlakatiga borgan har bir holatingiz haqida vakolatli organlarga ma'lum qiling.
- ✔ Agar siz YI+ mamlakatlaridan birida ruxsatsiz bo'lib turgan bo'lsangiz, bu haqda vakolatli organlarga ma'lum qiling.
- ✔ Agar boshqa bir YI+ mamlakatida yaqin oila a'zolaringiz bo'lsa, bu haqda vakolatli organlarga ma'lum qiling.
- ❗ **MUHIM!** Qonunga muvofiq, barmoq izlaringizni topshirishingiz va suratingiz olinishi shart.

QAYSİ HUJJATLARNI KO'RSATISHINGIZ KERAK?

Quyidagilarga oid o'zingiz bilan birga bo'lgan barcha hujjatlarni vakolatli organlarga taqdim eting:



- shaxsingizga oid hujjatlar (tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, pasport, shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma);



- YI+ mamlakatlaridagi yaqin oila a'zolaringizga oid hujjatlar (rasmiy hujjatlar, ular bilan aloqada ekaningizni tasdiqlovchi dalillar);



- YI+ mamlakatlarida avval bo'lib turganingiz (yashash uchun ruxsatnoma, viza asosida yoki maktab yoxud universitet diplomini olish maqsadida).

Bu ma'lumotlarni imkon qadar tezroq taqdim eting. Shu tariqa, arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakati tezroq aniqlanishi mumkin.

➤ NIMA UCHUN BARMOQ IZLARINGIZ VA FOTOSURATINGIZNI TOPSHIRISHINGIZ SHART?



Ushbu mamlakatning vakolatli organlari barmoq izlaringizni oladi va sizni suratga tushiradi. Ushbu ma'lumotlar shaxsingizni tasdiqlovchi ma'lumotlar va boshqa tegishli ma'lumotlar bilan birga Eurodac deb ataladigan umumiy Yevropa ma'lumotlar bazasiga yuboriladi.

Mazkur ma'lumotlar bazasidan YI+ga kiruvchi barcha 31 ta mamlakat foydalanadi va ular sizga oid ma'lumotlarni olish uchun ma'lumotlaringizga ishlov berishi mumkin. Agar siz boshqa bir YI+ mamlakatiga ruxsatsiz ko'chib o'tsangiz va barmoq izlaringiz qayta olinsa, Eurodac tizimida saqlanayotgan barcha ma'lumotlaringizni o'sha mamlakatning vakolatli organlari ko'ra oladi.

Eurodac ma'lumotlar bazasi to'g'risida batafsil ma'lumot alohida broshyurada keltirilgan.



➤ MAJBURIYATLARINGIZNI BAJARMASANGIZ, BUNING OQIBATLARI QANDAY BO‘LADI?




Agar siz vakolatli organlar bilan hamkorlik qilmasangiz, bu arizangiz uchun salbiy oqibatlarga olib keladi.

Agar barmoq izlaringizni topshirmasangiz, vakolatli organlar siz endi Yevropada boshpana olishga qiziqmayapsiz, degan xulosaga kelishi mumkin. Buning natijasida arizangizni ko‘rib chiqish to‘xtatiladi va siz endi ushbu mamlakatda qolish huquqiga ega bo‘lmaysiz.

Agar siz ruxsatsiz ravishda boshqa bir YI+ mamlakatiga borsangiz yoki boshqa bir YI+ mamlakatida xalqaro himoya so‘rab ariza bersangiz, ehtimol siz arizangizni ko‘rib chiqish uchun mas‘ul bo‘lgan YI+ mamlakatiga qaytarilasiz.

Agar siz bo‘lishingiz talab etilgan YI+ mamlakatidan boshqa YI+ mamlakatida bo‘lsangiz, harakatlanish erkinligingiz cheklanishi va sizga kamroq yordam ko‘rsatilishi mumkin.



➤ USHLAB TURISH NIMANI ANGLATADI?

Vaqtinchalik ushlab turish - bu siz erkin tark eta olmaydigan maxsus muassasaga joylashtirilishingizni anglatadi. Vakolatli organlar sizni hibsga olish uchun asosli sababga ega bo'lishi shart. Ular sizning holatingizda boshqa hech qanday imkoniyat yo'qligiga ishonch hosil qilishi kerak. Vakolatli organlar qaror qabul qilishdan oldin shaxsiy ahvolingizni o'rganib chiqadi. Ushlab turish sabablari, masalan, quyidagilar bo'lishi mumkin:



- boshpana so'rab bergan arizangizga oid muhim jihatlarni (masalan, shaxsingizni) hibsga olmasdan turib tekshirib bo'lmasa;
- Siz belgilangan joyda qolish majburiyatiga rioya qilmagan bo'lsangiz yoki yana qochib ketishingiz xavfi mavjud bo'lib, vakolatli organlar siz bilan bog'lana olmaydigan bo'lsa.
- siz boshpana so'rab bergan arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga ko'chirish to'g'risidagi qarorni olgansiz va ko'chirish amalga oshirilishidan oldin qochib ketishingiz xavfi mavjud
- siz xavfsizlikka tahdid solasiz.

Agar siz ushlab turilgan bo'lsangiz, ushbu qaror ustidan shikoyat qilishingiz hamda bepul yuridik yordam va vakillik so'rashingiz mumkin.

⚠ MUHIM! Agar siz boshqa bir YI+ mamlakatiga ruxsatsiz borsangiz, bu kelajakda ushlab turilishingiz xavfini oshiradi.

➤ VAKOLATLI ORGANLAR ARIZANGIZNI QAYSI YI+ MAMLAKATI KO'RIB CHIQUISHINI QANDAY HAL QILADI?

Agar bu sizning YI+ mamlakatlaridan birida xalqaro himoya so'rab bergan birinchi arizangiz bo'lsa, arizangizni ko'rib chiqish uchun muayyan bir YI+ mamlakati mas'ul bo'lishining bir nechta sabablari mavjud.

1) Oilaviy aloqalar



Birinchi va eng muhim sabab: yaqin oila a'zoingiz boshqa bir YI+ mamlakatida allaqachon xalqaro himoyaga ega bo'lsa yoki ayni vaqtda xalqaro himoya so'rab murojaat qilayotgan bo'lsa va sizning arizangiz ko'rib chiqilishidan oldin u bilan birlashishingiz kerak bo'lsa.

Yaqin oila a'zolari quyidagilar hisoblanadi:

turmush o'rtog'ingiz (eringiz yoki xotiningiz)

sizning fuqarolik turmush o'rtog'ingiz yoki siz bilan barqaror munosabatda bo'lgan fuqarolik turmush o'rtog'ingiz

farzandingiz (18 yoshga to'lmagan va turmush qurmagan).

! **MUHIM!** Siz YI+ mamlakatlari hududiga kirishdan avval o'sha shaxs bilan munosabatda bo'lganingizni imkon qadar tezroq isbotlay olishingiz kerak. Ushbu davr sizning kelib chiqqan mamlakatingizdan bo'lgan safaringizni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Agar boshqa bir YI+ mamlakatida yashayotgan oila a'zolaringiz bo'lsa, ma'lumot taqdim etishning eng yaxshi usuli "**oila a'zolarini qidirish shakli**" deb ataladigan hujjatni to'ldirishdir. Agar boshqa bir YI+ mamlakatida yashovchi oila a'zolaringiz bo'lsa va bu shaklni hali olmagan bo'lsangiz, vakolatli xodim yoki yuridik maslahatchingizga murojaat qiling. Ular ushbu shaklni to'ldirishda ham yordam berishi mumkin.

Oila a'zolaringiz bilan qayta birlashish imkoniyati haqidagi batafsil ma'lumotni "**Boshqa bir YI+ mamlakatida oila a'zolaringiz borligini isbotlash uchun qanday dalillar taqdim etishingiz mumkin?**" nomli bo'limda topishingiz mumkin.

2) Muayyan bir YI+ mamlakatiga kirish uchun ruxsatnoma

Agar quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lsa, arizangizni ko'rib chiqish uchun YI+ mamlakati mas'ul bo'lishi mumkin:



- sizda muayyan bir YI+ mamlakatining vizasi yoki yashash uchun ruxsatnomasi bo'lsa;
- siz o'z mamlakingiz bilan kelishuvi mavjud bo'lgan YI+ mamlakatiga vizasiz kirgan bo'lsangiz.

3) Ta'lim malakasi yoki diplom



- Agar siz YI+ mamlakatlaridan biridagi ta'lim muassasasida kamida bir o'quv yili davomida kunduzgi shaklda o'qib, malaka yoki diplom olgan bo'lsangiz.

4) Muayyan YI+ mamlakatiga tartibsiz kirish

Quyidagi hollarda boshqa bir YI+ mamlakati arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lishi mumkin:



- YI+ mamlakatlaridan birining tashqi chegarasini ruxsatsiz kesib o'tgan bo'lsangiz;



- Yevropaga yo'l olayotganingizda YI+ mamlakatlaridan birining vakolatli organlari tomonidan dengizda qutqarilgan bo'lsangiz;



- YI+ mamlakatlaridan biridagi aeroportning tranzit hududida xalqaro himoya so'rab ariza bergan bo'lsangiz.

5) Parvarish qiluvchi va qaramog'idagi oila a'zosini birlashtirish

Siz boshqa bir YI+ mamlakatida bo'lgan oila a'zongiz parvarishiga muhtoj bo'lsangiz yoki YI+ mamlakatlaridan birida sizning parvarishingizga muhtoj oila a'zongiz bo'lsa.



Qaramog'idagi oila a'zosi quyidagi sabablarga ko'ra yordamga muhtoj bo'lishi mumkin:

- homiladorlik
- yangi tug'ilgan chaqalog'i bo'lganda
- og'ir ruhiy yoki jismoniy kasallikka chalinganda
- og'ir nogironlik
- og'ir ruhiy jarohat olganda
- keksalik.

Qaramlik holatlarida siz qaramog'idagi shaxsga g'amxo'rlik qila olishingizni yoki oila a'zoyingiz sizga g'amxo'rlik qila olishini ko'rsata olishingiz kerak.

6) Insonparvarlik sabablari

Arizangizni muayyan bir YI+ mamlakati ko'rib chiqishi uchun insonparvarlik sabablari bo'lishi mumkin. Bunga quyidagi omillar asos bo'lishi mumkin:

- oilaviy omillar
- ijtimoiy omillar
- madaniy omillar

Yuqoridagi sabablarga ko'ra boshqa bir YI+ mamlakatidan arizangizni ko'rib chiqish so'ralishi mumkin, ammo yakuniy qarorni o'sha mamlakatning vakolatli organi qabul qiladi.

➤ ARIZANGIZNI QAYSI YI+ MAMLAKATI KO'RIB CHIQISHINI ANIQLASHGA YORDAM BERISH UCHUN SIZ BILAN SUHBAT O'TKAZILISHI MUMKIN

Agar bu sizning boshpana so'rab birinchi ariza berishingiz bo'lsa, vakolatli organlar siz bilan shaxsiy suhbat o'tkazishi kerak.

! **MUHIM!** Bu boshpana masalasi bo'yicha suhbat emas. Ushbu suhbatning maqsadi arizangizni qaysi YI+ mamlakati ko'rib chiqishi kerakligini aniqlashdir.

Ushbu suhbat to'rtta asosiy maqsadni ko'zlaydi:


- vakolatli organlarga arizangizni ko'rib chiqish uchun qaysi YI+ mamlakati mas'ul ekanini aniqlashga yordam beradigan ma'lumotlarni to'plash;
- mas'ul YI+ mamlakatini aniqlash tartibi qanday amalga oshirilishi haqida savollar berish imkonini yaratish;
- ushbu broshyuradagi istalgan ma'lumot yuzasidan savollar berishingizga imkoniyat yaratish;
- sizdan nima sababdan boshqa bir YI+ mamlakatiga ko'chirilmasligingiz yoki nima sababdan ushbu mamlakatda qolishingizga ruxsat berilishi kerakligi haqida so'rash.

Suhbat siz yaxshi tushunadigan tilda o'tkaziladi. **!** Agar suhbatdosh va tarjimonning ma'lum bir jinsga mansub bo'lishini istasangiz, suhbatga chaqirilganda buni ayting. Daniya Immigratsiya Xizmati iloji bo'lsa, buni qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.



Siz taqdim etgan ma'lumotlarning hech biri kelib chiqqan mamlakatingiz hukumati yoki vakolatli organ oshkor qilinmaydi.

Suhbat davomida biror narsa tushunarsiz bo'lsa, savol berishingiz mumkin. Siz ham, xodim ham hamma narsani to'liq tushunishingiz muhim, shu bois savollar berishingiz mumkin.



Suhbatning audioyozuvi yozib olinadi va aytilganlarning yozma qisqacha bayoni sizga taqdim etiladi.

Shaxsiy suhbatningizning yozma qisqacha bayonini olgach, undagi ma'lumotlardan biri noto'g'ri deb hisoblasangiz va unga o'zgartirish kiritmoqchi bo'lsangiz, bu haqda murojaat qilishingiz mumkin.

Siz Daniya Immigratsiya Xizmati bilan www.nyidanmark.dk/KontaktAsyl veb-sayti orqali yoki quyidagi QR kod orqali bog'lanishingiz mumkin.

Zarurat tug'ilsa, suhbatdan keyin ham qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishingiz yoki nima sababdan boshqa bir YI+ mamlakatiga ko'chirilmasligingiz kerakligi haqida asoslar keltirishingiz mumkin.

Agar sizda hali taqdim etmagan ma'lumotlar yoki hujjatlar bo'lsa, ularni vakolatli organlarga taqdim etishingiz kerak.

Siz Daniya Immigratsiya Xizmatiga ma'lumot yoki hujjatlarni topshirishingiz kerak: Asl hujjatlar Daniya Immigratsiya Xizmatiga, Farimagvej 51A, 4700 Næstved manziliga yuborilishi kerak.

Boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni www.nyidanmark.dk/KontaktAsyl saytida elektron shaklda yoki quyidagi QR kodidan foydalanib topshirish mumkin:



➤ SUHBAT HAR DOIM HAM O‘TKAZILADIMI?

Agar siz boshpana so‘rab birinchi marta ariza berayotgan bo‘lsangiz, vakolatli organlar quyidagi hollarda shaxsiy suhbat o‘tkazmaslikka qaror qilishi mumkin:

- arizangizni ko‘rib chiqish uchun qaysi YI+ mamlakati mas‘ul ekani allaqachon ma‘lum bo‘lsa;
- arizangizni ko‘rib chiqish uchun qaysi YI+ mamlakati mas‘ul ekanini aniqlashga ularda yetarli ma‘lumot mavjud bo‘lsa;
- siz ilgari suhbatga kelmay qolib, nima sababdan qatnasha olmaganingiz haqida vakolatli organlarga xabar bermagan bo‘lsangiz;
- siz vakolatli organlar bilan aloqani saqlamagan bo‘lsangiz.

Agar suhbat tashkil etilmasa, uni o‘tkazishni talab qilishingiz mumkin. Agar xodimlar ishingizni ko‘rib chiqish uchun ma‘lumotlar yetarli deb hisoblasa, ushbu so‘rovni rad etishi mumkin, lekin suhbatni o‘tkazmaslik sabablarini tushuntirib berishi shart.

Agar suhbatga taklifnoma yubormoqchi bo‘lsangiz, Daniya Immigratsiya Xizmati bilan www.nyidanmark.dk/KontaktAsyl veb-sayti orqali yoki quyidagi QR kodidan foydalanib bog‘lanishingiz mumkin. Suhbatga taklifnoma yuborish sababini yozishni unutmang.



➤ BOSHQA BIR YI+ MAMLAKATIDA OILA A'ZOLARINGIZ BORLIGINI ISBOTLASH UCHUN QANDAY DALILLARNI TAQDIM ETISHINGIZ MUMKIN?

Oila a'zoyingiz haqidagi ma'lumotni taqdim etishning eng yaxshi usuli - "**oila a'zolarini qidirish shakli**"ni to'ldirishdir.

Bundan tashqari, qarindoshligingizni isbotlay oladigan har qanday rasmiy davlat hujjatlarini taqdim eting. Shuningdek, oila a'zolaringiz bilan aloqani uzmaganingizni tasdiqlovchi boshqa turdagi dalillarni, masalan, suratlar, elektron xatlar yoki SMS xabarlarini ham taqdim etishingiz mumkin.



Agar qarindoshlik munosabatingizni tasdiqlovchi dalillar bo'lmasa, vakolatli organlar qarindosh ekaningizni isbotlash uchun sizdan DNK testidan o'tishni so'rashi mumkin.

Oila a'zoyingiz bilan birlashish uchun har ikkingiz ham yozma ravishda bunga rozilik bildirishingiz kerak. Iloji bo'lsa, ushbu hujjatni ingliz tilida taqdim etishga harakat qiling.

Ushbu ma'lumotni imkon qadar tezroq tayyorlashni boshlang.



Agar sizda qo'shimcha savollar bo'lsa yoki oilani birlashtirish tartibi bo'yicha maslahat kerak bo'lsa, yuridik maslahatchidan yordam so'rashingiz mumkin.

Agar boshqa bir YI+ mamlakatida oila a'zoyingiz bo'lsa, ammo u bilan aloqani yo'qotgan bo'lsangiz, uni topishda sizga yordam beradigan tashkilotlar mavjud.

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, ushbu tashkilotlar bilan bog'lanishingiz mumkin:

Qizil Xoch qidiruv xizmati: tracing@rodekors.dk yoki 35 25 92 00 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

➤ JARAYON QANCHA DAVOM ETADI?



Mamlakatlar o'rtasidagi aloqa odatda **1 yarim oydan 3 oygacha** davom etadi, ammo bu sizning holatingizga qarab **uzoqroq vaqt** olishi mumkin.



Agar boshqa bir YI+ mamlakati arizangizni ko'rib chiqishini tasdiqlasa, sizni ko'chirish to'g'risidagi so'rov qabul qilingan kundan boshlab **6 oy ichida** o'sha mamlakatga ko'chirilasisiz.




Agar so'rov boshqa bir YI+ mamlakatida oila a'zoyingiz borligi sababli yuborilgan bo'lsa, ko'chirish **ustuvor tartibda amalga oshiriladi**.



Agar hozirda ushlab turilgan bo'lsangiz yoki **kelajakda ushlab turilishingiz** mumkin bo'lsa, **ishingiz shoshilinch tarzda ko'rib chiqiladi**. Sizing ko'chirilishingiz **5 hafta** ichida tashkil etilishi kerak. Agar ko'chirish 5 hafta ichida amalga oshirilmasa, siz ushlab turishdan ozod etilasiz. Shunga qaramay, sizni ko'chirish baribir arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakati so'rovni **qabul qilgan kundan boshlab 6 oy** ichida tashkil etiladi.

Agar siz jinoyat sodir etganingiz sababli ushlab turilgan bo'lsangiz, ko'chirish muddati **ko'pi bilan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin**.



! **MUHIM!** Agar siz qochib ketsangiz, vakolatli organlardan yashirinsangiz yoki ko'chirishni tashkil etishda ular bilan hamkorlik qilmasangiz, **ko'chirish muddati ko'pi bilan 3 yilgacha uzaytirilishi** mumkin.

➤ AGAR SIZ BOSHQA BIR YI+ MAMLAKATIDA ALLAQACHON XALQARO HIMOYA SO'RAB ARIZA BERGAN BO'LSANGIZ NIMA BO'LADI?

Siz faqat bitta YI+ davlatida xalqaro himoya uchun ariza topshirishingiz mumkin. Agar siz boshqa bir YI+ mamlakatida allaqachon xalqaro himoya so'rab ariza bergan bo'lsangiz, arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga qaytarilasiz.

Agar arizangizni ko'rib chiqish uchun boshqa bir YI+ mamlakati mas'ul ekanligini ko'rsatuvchi ma'lumot mavjud bo'lsa, o'sha mamlakatga bildirishnoma yuboriladi. Agar o'sha YI+ mamlakati arizangizni ko'rib chiqishni tasdiqlasa, sizga qaysi YI+ mamlakatiga o'tkazilishingiz haqida **qaror taqdim** etiladi.

Agar siz xalqaro himoya so'rab birinchi marta murojaat qilmayotgan bo'lsangiz yoki arizangizni ko'rib chiqish uchun boshqa bir YI+ mamlakati mas'ul ekani allaqachon hal etilgan bo'lsa, vakolatli organlar siz bilan shaxsan suhbat o'tkazmasligi mumkin.

Shunga qaramay, sizga nima sababdan o'sha mamlakatga ko'chirilmasligingiz yoki nima sababdan ushbu mamlakatda qolishingizga ruxsat berilishi kerakligini tushuntirish imkoniyati beriladi.

Ushbu ma'lumotni qanday taqdim etish haqidagi ma'lumotni quyida topishingiz mumkin:

Daniya Immigratsiya Xizmati bilan www.nyidanmark.dk/KontaktAsyl veb-sayti orqali yoki quyidagi QR kodidan foydalanib bog'laning:



➤ QAROR QABUL QILINGACH NIMA BO'LADI?

Agar sizni YI+ning boshqa mamlakatiga ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilinsa, ba'zi huquqlaringiz bekor qilinadi, masalan:

- siz ko'plab **xizmatlar va yordam turlaridan foydalana olmaysiz;**
- mehnat qilish **yoki** kurslarda qatnashishga ruxsat berilmaydi.



Ko'chirish arizangizni ko'rib chiqishga YI+ mamlakati rozi bo'lgan yoki buni tasdiqlagan kundan boshlab 6 oy ichida amalga oshirilishi kerak.

Agar siz ushlab turilgan bo'lsangiz, ishingiz shoshilinch tartibda ko'rib chiqiladi. Sizning ko'chirilishingiz 5 hafta ichida tashkil etilishi kerak. Agar ko'chirish 5 hafta ichida amalga oshirilmasa, siz ushlab turishdan ozod etilasiz.

Sizni ko'chirish YI+ mamlakati arizangizni ko'rib chiqishga rozi bo'lgan yoki buni tasdiqlagan kundan boshlab 6 oy ichida amalga oshiriladi.

Agar siz jinoyat sodir etganingiz sababli ushlab turilgan bo'lsangiz, ko'chirish muddati ko'pi bilan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

! **MUHIM!** Agar siz qochib ketsangiz yoki hokimiyat bilan hamkorlik qilmasangiz, **o'tkazish muddati ko'pi bilan 3 yilgacha uzaytirilishi mumkin.**

➤ KO'CHIRISH QARORIGA ROZI BO'LMASANGIZ, QANDAY OQIBATLAR BO'LADI?



Agar arizangizni ko'rib chiqish uchun boshqa bir YI+ mamlakati mas'ul deb topilsa, sizga **ko'chirish to'g'risidagi qaror** beriladi. Ushbu qarorda siz qaysi mamlakatga ko'chirilishingiz ko'rsatiladi.

Agar ko'chirish to'g'risidagi qarorga rozi bo'lmasangiz, e'tirozlaringiz sabablarini sudga bildirishingiz mumkin. Bu shikoyat qilish deb ataladi. Qaror ustidan shikoyat qilganingizda, yakuniy qarorni sud yoki tribunal qabul qiladi.

Ko'chirish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish uchun faqat uchta sabab mavjud:

- siz aynan o'sha YI+ mamlakatiga ko'chirilishingiz inson huquqlaringizga zid bo'lishini da'vo qilasiz;
- qaror qabul qilingan paytda mavjud bo'lmagan yangi ma'lumot paydo bo'lgan bo'lsa;
- sizning boshqa bir YI+ mamlakatida oila a'zolaringiz bo'lsa va siz aynan ular bilan birlashtirilishingiz kerak bo'lsa.

Agar o'zingizga yuridik maslahatchi yollashga imkoniyatingiz bo'lmasa, shikoyat qilishda sizga yordam beradigan bepul yuridik maslahatchi taqdim etiladi.

Butun ushbu jarayon davomida siz tushunadigan tilda gaplashadigan tarjimon sizga yordam beradi.



TO'XTATIB TURUVCHI TA'SIR VA MOHIYATAN KO'RIB CHIQUISH BO'YICHA SHIKOYAT BIRGALIKDA QO'LLANILGANDA NIMALARNI BILISHINGIZ KERAK

Shikoyatni qachon, qayerga va qanday tartibda berish kerakligi sizga berilgan ko'chirish to'g'risidagi qarorda tushuntiriladi.

Sizni boshqa bir YI+ mamlakatiga ko'chirish to'g'risidagi qarorga nima uchun rozi emasligingiz sababini yoki sabablarini ko'rsatishingiz kerak.

Shuningdek, shikoyatingiz ko'rib chiqilayotgan davrda sizning arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga ko'chirmaslik kerakligining sabablarini ham ko'rsatishingiz lozim.

Sud avvalo, shikoyatingiz ko'rib chiqilayotgan davrda shu mamlakatda qolib, uning natijasini kutishingiz mumkinmi-yo'qmi, **1 oy** ichida hal qiladi. Bu ijroni to'xtatib turuvchi ta'sir yuzasidan shikoyat deb ataladi.

Agar sud siz ushbu mamlakatda shikoyat natijasini kutib tura olmasligingiz haqida qaror qilsa, shikoyat qilish jarayoni davom etayotgan paytda siz arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga ko'chirilasiz.

Agar sud shikoyatingiz ko'rib chiqilayotgan davrda mamlakatda qolishingizga ruxsat bersa, ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 oy ichida arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga o'tkazilishingiz kerakligi to'g'risida yakuniy qaror chiqarishga harakat qiladi.

Agar shikoyatingiz qanoatlantirilmasa, siz arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga ko'chirilasiz. Ko'chirish sud yakuniy qarorini chiqargan kundan e'tiboran 6 oy ichida amalga oshirilishi lozim.

Agar hozirda ushlab turilgan bo'lsangiz yoki kelajakda ushlab turilishingiz mumkin bo'lsa, ishingiz shoshilinch tarzda ko'rib chiqiladi. Sizning ko'chirilishingiz 5 hafta ichida tashkil etilishi kerak. Agar ko'chirish 5 hafta ichida amalga oshirilmasa, siz ushlab turishdan ozod etilasiz. Shunga qaramay, arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakati so'rovni qabul qilgan kundan boshlab 6 oy ichida sizni ko'chirish jarayonini tashkil etiladi.

MUHIM! Siz vakolatli organlar bilan hamkorlik qilishingiz va arizangizni ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan YI+ mamlakatiga borishingiz kerak.

➤ QANDAY SHAXSIY MA'LUMOTLAR YIG'ILADI?



Siz turgan YI+ mamlakatidagi vakolatli xodimlar ayrim ma'lumotlarni, jumladan quyidagilarni yig'adi:

- Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz va siz bilan birga safar qilayotgan oila a'zolaringizning shaxsiy ma'lumotlari (ismi, fuqaroligi, tug'ilgan sanasi va joyi). Agar siz ilgari boshqa ism-shariflar yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan bo'lsangiz, bu haqda sizdan so'rashadi.
 - Shaxsingiz va yo'l hujjatlaringiz haqidagi ma'lumotlar.
- Shaxsingizni tasdiqlaydigan boshqa har qanday ma'lumotlar, masalan, barmoq izlaringiz.
 - Boshqa bir YI+ mamlakatida yashayotgan oila a'zolaringiz haqidagi ma'lumotlar, masalan, ularning shaxsiy ma'lumotlari, ular bilan oxirgi marta qachon aloqada bo'lganingiz, qayerda ekanligi va huquqiy maqomi.
 - Agar bu sizning holatingizga taalluqli bo'lsa, YI+ mamlakatida yashashingizga imkon bergan hujjatlar haqidagi ma'lumotlar.
 - YI+ mamlakatida bir yildan ortiq o'qiganingizni tasdiqlovchi hujjatlar haqidagi ma'lumotlar.
 - Ushbu mamlakatga kelishdan oldin o'tgan mamlakatlaringiz haqidagi ma'lumotlar.
 - Shaxsiy holatingizga oid ma'lumotlar.
 - Xalqaro himoya so'rab avval berilgan har qanday arizalarning sanasi va ushbu arizalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar.

SHAXSIY MA'LUMOTLARINGIZGA OID QANDAY HUQUQLARGA EGASIZ?

Siz vakolatli organlarga taqdim etgan har qanday ma'lumotdan foydalanish huquqiga egasiz.

Agar shaxsiy ma'lumotlaringizdan birortasi noto'g'ri yoki qonunga xilof tarzda qayta ishlangan deb hisoblasangiz, ma'lumotlar nazoratchisiga murojaat qilib, ulardan foydalanish huquqini so'rashingiz, noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatishni yoki qonunga xilof tarzda qayta ishlangan ma'lumotlarni o'chirishni talab qilishingiz mumkin.

Quyida keltirilgan ma'lumotlar orqali ushbu mamlakatdagi ma'lumotlar nazoratchisi bilan bog'lanishingiz mumkin.

www.nyidanmark.dk/da/Kontakt-os/Kontakt-Udl%C3%A6ndingestyrelsen/Kontakt-DPO



Ushbu broshyura faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan. U o'z-o'zidan huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Ushbu materialning asosiy qismini Yevropa Ittifoqining Boshpana masalalari bo'yicha agentligi (EUAA) taqdim etgan bo'lib, mazkur broshyuradan nusxa ko'chirish va unga o'zgartirish kiritishga faqat Ylga A'zo davlatlar uchun EUAA tomonidan ruxsat beriladi. EUAA Ylga A'zo davlatlar yoki boshqa mas'ul uchinchi shaxslar tomonidan ushbu broshyuraga kiritilgan ma'lumotlarning aniqligi, mazmuni, to'liqligi, qonuniyligi yoki ishonchliligi uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ushbu broshyuradagi ma'lumotlardan qanday foydalanilishidan EUAA ham, uning nomidan harakat qiluvchi hech bir shaxs ham javobgar emas.